

**REFLEKSIVLIK RIVOJLANISHINING SHAXS INDIVIDUAL PSIXOLOGIK****TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI**

G‘oyimov Umar Eshmurodovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim kafedraasi o‘qituvchisi

umarjon199112@gmail.com.

**ANNOTATSIYA**

Maqolada refleksiya va qobiliyat tushunchalari alohida batafsil ochib berilgan. Shu bilan birgalikda maqolada refleksiv qobiliyat tushunchasi batafsil yoritib berilgan bo‘lib, unda refleksiv qobiliyat bugungi kunda ertangi yangiliklar yaratuvchi yoshlarni yetishtirib berishda nihoyatda muhim ekanligi yoritib berilgan. Dastlab maqolada refleksiya tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan fikrlar, so‘ngra qobiliyat tushunchasiga olimlar tomonidan aytilgan fikrlar keltirib o‘tilgan. Maqola oxirida xulosa keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Refleksiya, qobiliyat, tasavvur, o‘qituvchi, mahorat, rivojlanish, tashkiliy, psixologik, pedagog, qobiliyat turi, fikrlash, ortga qatish.

Inson faoliyatida muvaffaqiyatga erishishda motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Uning qonuniyatlari va muammolarini o‘rganish psixologiyada muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bu zamonaviy jamiyat rivojlanishining yuqori darajasi bilan bog‘liq. Faoliyatini amalga oshirish maqsadida, motivatsiya yetarli darajada zarur. Biroq, motivatsiya juda kuchli bo‘lsa, faollik va kuchlanish darajasi oshib boradi, bu esa faoliyat va xulq atvorning ma‘lum sohalariga olib keladi hamda ish samaradorligi kamadi. Shunday qilib, motivatsiyaning juda yuqori darajasi salbiy hissiyotlar - stress, hayajon, kuchlanishga olib kelishi mumkin, bu faoliyatning yomonlashishiga olib keladi. Shuning uchun, yuqori darajadagi motivatsiya har doim ham yaxshi bo‘lavermaydi [9, 119-125 b.].

Inson ongi ostida turli xil ehtiyojlar mavjud. Bu ehtiyojlar inson xulq atvorini, uning tashqi kuzatilgan shaklini shakllantiruvchi motivatsiyalarga aylanadi [4].

Insonning motivatsion sohasi - bu ierarxiyaga ega, hayot davomida rivojlanadigan yaxlit tizim bo‘lib, harakatlanuvchidir va ehtiyoj predmeti va individning holatini aks ettiradi. Shunga ko‘ra, shaxs motivatsion sohasini tasvirlaydigan asosiy munosabatlar bu – motivlar yoki ehtiyojlar ierarxiyasi hisoblanadi. Ularni tushunish darajasi, intensivlik va ehtiyojlarni boshqarish qobiliyati katta ahamiyatga ega [5].

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi – bu muvaffaqiyatga erishish, faoliyatda yuksak natijalarga erishish istagidir. G.Myurrey birinchi bo‘lib motivatsiyalarning qulay usullarini ajratib ko‘rsatdi [10] va bu atamaga quyidagi ta‘rifini berdi: “biror qiyinchilikni yengish. Jismoniy ob‘ektlar, odamlar yoki g‘oyalarni to‘g‘rilash, ularni boshqarish va tashkillashtirish.

Ularni tez va mustaqil bajarish mumkin emas. To'siqlarni bartaraf etish va yuqori darajaga erishish. O'z o'zini ustun qo'yish. Boshqalar bilan raqobatlashish va ularni yengish. O'z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli qo'llash orqali o'z hurmatini oshish" [10].

Keyinchalik motivatsiyaga erishish muammolarini boshqa ko'plab psixologlar ishlab chiqdilar. Amerikalik olim D.Makklelland, natijaga erishish uchun talab "mukammallikka erishish, takomillashtirish standartiga erishish uchun sabab hisoblanadi". U yorqin motivatsiyaga erishish uchun odamlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi:

a) muvaffaqiyatga erishish uchun maksimal motivatsiya sharoitida ishning ustuvorligi, ya'ni o'rtacha murakkablikdagi muammolarni hal qilish;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya har doim ham boshqalarga nisbatan yuqori natijalarga olib kelmaydi va yuqori natijalar har doim ham motivga erishish uchun amalga oshirilgan harakatlarning natijasi emas;

v) biror faoliyatni amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarlikni o'ziga olish. Sharti shuki: past yoki o'rtacha xavfli vaziyat, shuningdek, muvaffaqiyat tasodifga bog'liq emas;

g) o'z faoliyati natijalari bo'yicha mos keluvchi mulohazalarni afzal ko'rish;

d) vazifalarni bajarishning yanada samarali yangi usullarini topish istagi, ya'ni bunday odamlar novatorlikka ko'proq moyil [7].

Nemis psixologi X.Xekxauzen tomonidan motivatsiyaga erishishning boshqacha ta'rifi ilgari suriladi [8]. Uning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi – bu "turli faoliyat sohalarida insonning yuqori imkoniyatlarga ega bo'lishi yoki uni kengaytirishga harakat qilishidir, bunda biror faoliyatni amalga oshirish uchun muvaffaqiyat kriteriyalari qo'llanilganda ushbu faoliyat muvaffaqiyatga yoki muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin". Shuningdek, u motivatsiyaga erishishning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi. Biror narsaga erishish g'oyasi ikkita imkoniyatni o'z ichiga oladi: muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka bardosh berish. Yuqori motivatsiyali odamlarda muvaffaqiyatga erishishga ko'proq e'tibor beriladi. Muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya, faoliyatni takomillashtirish uchun imkoniyatlar taklif qilinganda namoyon bo'ladi. Vazifalar o'rta murakkablikda bo'lishi kerak. Bundan tashqari, motivatsiyaga erishish har doim aniq yakuniy natijaga, maqsadga yo'naltiriladi. Bunda motivatsiyaga erishish uchun maqsadlarni doimiy qayta ko'rib chiqish kerak. Yuqori motivatsiyaga erishuvchi sub'ektlar avvalgi to'xtab qolgan ishlariga qaytib, ularni oxiriga yetkazadilar [8].

Zamonaviy psixologiyada motivatsiya sohasidagi taniqli mualliflardan biri faoliyat yondashuv asoschisi A.N.Leontev hisoblanadi. U shunday deb yozadi, "umuman olganda, zamonaviy psixologiyada motiv deb inson faoliyatini amalga oshiruvchi ichki kuchga aytiladi". Motivga quyidagicha ta'rif beradi: "bu ob'ektiv, faoliyatni rag'batlantiruvchi va boshqaruvchi, muayyan ehtiyojga javob beruvchi, aniq talab qo'yuvchi yoki, tabiiyki, ehtiyojni qondiruvchidir" [5]. Ma'noni shakllantiruvchi vazifalarni bajaruvchi motivlar, inson faoliyatining turli sohalarida yetakchilik qiladi. Ular markaziy o'rinda turadi, ko'pincha xulq

- atvorda namoyon bo‘ladi va shaxs rivojlanish uchun eng muhimi hisoblanadi. Bu holda rag‘batlantirish vazifasini ikkinchi darajali yoki bo‘ysinuvchi motivlar egallaydi [4].

T.O.Gordeeva motivatsiyaga erishish deganda motivatsiyaga erishish uchun olib borilgan faoliyatni tushunadi. Motivatsiyaga erishish uchun olib borilgan faoliyat – bu shunday faoliyatki, maqsadga erishish yo‘lida o‘z – o‘zini, boshqa odamlarni, munosabatlarni, dunyoni o‘zgartiriladi. Bunday faoliyat “asosiy insoniy talablarga erishish, o‘shish va taraqqiyotda nimanidir tez va yaxshi bajarish, taraqqiyotga harakat qilish istagi bilan rag‘batlantiriladi” [1]. Psixologiyada motivatsiyaga erishish M.S.Magomed-Eminov tomonidan ham tadqiq qilingan [6]. U muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini uni amalga oshirish jarayonini boshqaruvchi integral affektiv va kognitiv jarayonlarning funksional tizimi sifatida belgilaydi. Motivatsiyaga erishish faoliyati tartibga solish jarayonida muayyan funksiyalarni bajaruvchi maxsus tarkibiy komponentlarni ko‘rsatish mumkin. Bu motivatsiya: aktualizatsiya, ya’ni faoliyatni boshlash va rag‘batlantirish; seleksiya - maqsadli tanlash jarayoni va tegishli harakatlarni aniqlash; realizatsiya – faoliyatni amalga oshirishni tartibga solish va uni amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish; postrealizatsiyalar, ya’ni faoliyatni bekor qilish yoki boshqa bir faoliyatni boshqasiga o‘zgartirish jarayoni [6].

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi har qanday vaziyatda, ayniqsa, uning natijalari boshqa odamlar tomonidan qabul qilinganda va baholanganda muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun harakat qilishdir [2].

Muvaffaqiyatsizlikdan qochuvchi sub’ektlarning motivatsiyasi, faoliyati va sub’ekti boshqacha bo‘ladi. Ular faoliyatining aniq vazifasi muvaffaqiyatga erishish emas, balki mag‘lubiyatning oldini olishga qaratilgan bo‘ladi. Ularning barcha fikrlari va harakatlari ushbu maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Dastlab muvaffaqiyatsizlikni o‘ylagan shaxslarning o‘ziga ishonchi yo‘qoladi, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ishonmaydi va tanqiddan qo‘rqadi. Muayyan vazifalarni bajarishda, ayniqsa muvaffaqiyatsizlik bo‘lishi mumkin bo‘lgan hollarda, odamda salbiy his-tuyg‘ular uyg‘onadi. U bunday faoliyatdan zavqlanmaydi va bu faoliyatni ilgari surmaydi. Muvaffaqiyatga erishishga harakat qilgan shaxslar, o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini to‘g‘ri baholaydilar. Odatda ular o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlariga mos keladigan mutaxassisliklarni tanlashadi. Omadsizlikni o‘ylagan odamlar, aksincha, kasbiy o‘zlikni angolmasligi bilan ajralib turadilar. Ular o‘zlari uchun juda ham oson yoki juda qiyin kasb turlarini tanlaydilar. Biroq, ular odatda o‘zlarining qobiliyatlari haqida xolisona ma’lumotlarga e’tibor bermaydilar, shuningdek, o‘ziga past yoki yuqori baho beradilar. Maqsadga yo‘naltirilgan motivatsiyali, faoliyatli va muvaffaqiyatli shaxslar o‘z maqsadlariga erishishda katta qat’iyat ko‘rsatadilar. Juda oson va juda murakkab vazifalarni bajarishda ular muvaffaqiyatsizlikka uchraydigan kishilardan boshqacha yo‘l tutadilar. Muvaffaqiyatning motivatsiyasi ustunlik qilganda, odam o‘rta yoki juda murakkab darajadagi vazifalarni afzal ko‘radi. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi ustun bo‘lgan hollarda, odamlar eng oson yoki eng qiyin vazifalarni tanlaydilar.

Har qanday faoliyatda muvaffaqiyat qozonishga intilgan shaxslar uchun muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan keyingi holatlarda ushbu vazifani hal qilish jozibadorligi va unga qiziqishi ortadi. Muvaffaqiyatsizlikka uchraydigan kishilar bunday ishni juda kam qiziqish bilan bajaradilar, ba'zan qiziqish yo'qolishi mumkin. Dastlab muvaffaqiyatga erishish uchun harakat qilgan shaxslar muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so'ng ko'pincha yaxshi natijalarga erishishadi. Lekin dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchrashini bilgan shaxslar aksincha, muvaffaqiyatga erishgandan so'ng yuqori natijalarga erishadilar. Maqsadga erishish motivi yuqori bo'lgan shaxs faoliyati, muvaffaqiyatsizlikdan qochuvchi motivatsiyaga ega shaxslardan ko'ra unumliroq bo'ladi.

Bundan tashqari, muvaffaqiyatga erishuvchi va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaydigan shaxslarning shaxsiy yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari o'rtasida ma'lum farqlar mavjud. Muvaffaqiyatga erishish uchun harakat qilayotgan shaxslarlar, o'zlarining yutuqlarini shaxsiy omillar, ya'ni harakat, qat'iyat, qobiliyatga bog'liq deb biladilar, muvaffaqiyatsiz ishlar odatda tasodifiy vaziyatlarda yuz beradi deb hisoblaydilar. Omadsizlikdan qochuvchi insonlar o'zlarining yutuqlarini tashqi omillar, masalan, omad, berilgan vazifaning qiyinligi yoki osonligi bilan bog'laydilar, agar ishi muvaffaqiyatsiz bo'lsa, ular o'zlarining imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Bundan tashqari, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun juda kuchli motivga ega bo'lgan sub'ektlar, odatda, o'z salohiyatini to'g'ri baholay olmaydilar – muvaffaqiyatsizlikdan sarosimaga tushadilar va o'zlariga ishoch kamayadi. Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan sub'ektlar odatda oshqacha tarzda harakat qilishadi - odatda, ular o'zlarining imkoniyatlari, qobiliyatlarini munosib baholaydilar, muvaffaqiyatsizlikdan sarosimaga tushmaydilar [3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya insonning muayyan harakatlaridan kelib chiqib, muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin bo'lgan kuch deb tushuniladi. Bu muayyan yo'nalganlik, intensivlik va qat'iy faoliyatda namoyon bo'ladi. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi deganda turli xatolar va omadsizliklardan qochish uchun ishlab chiqilgan mexanizm tushuniladi; ya'ni, muvaffaqiyatsizlikka uchragan shaxs yana xato qilmaslikka harakat qiladi, ba'zan to'liq yoki qisman qobiliyatsizliklarini o'zgartirish uchun harakat qiladilar. Muvaffaqiyatga harakat qilish insonda muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivatsiyasi ustunligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ijobiy bo'lib, insonning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Inson faoliyati motivatsiyasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlari va ushbu tadqiqot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, inson faoliyatining muvaffaqiyati uch omil bilan belgilanadi: motivatsiya kuchi (muvaffaqiyatga erishish istagi), qadriyatlar tizimida insonning qadriyatlarini qiymatining mavjudligi va zarur ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish.

Shaxsning barqaror tavsifi sifatida muvaffaqiyatga erishishni birinchi bo'lib G.Myurrey tomonidan ajratib ko'rsatilgan va biror narsani tez va yaxshi bajarishga intilish va va har

qanday ishda ma'lum darajaga erishish deb tushuniladi. D.Mak-Klelland va X.Xekxauzen kabi olimlar ushbu motivni tadqiq qilish jarayonida ikkita mustaqil motivatsion yo'nalishni ajratib ko'rsatganlar: muvaffaqiyatga erishish istagi va omadsizlikdan qochish muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik istagi. Bu holatda mavaffaqiyatga erishish motivi, insonning o'z imkoniyatlari darajasini oshirishga intilishi bilan belgilanadi [17].

H. Hekxauzenning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatga erishish motivi insonning muvaffaqiyat kriteriyalari qo'llanilganda eng yuqori darajadagi imkoniyatlarini saqlab qolish va kengaytirishga harakat qilishi sifatida ta'riflanadi, bunday faoliyat natijalari muvaffaqiyatga yoki muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ma'lum bir yakuniy natijaga yo'naltiriladi, ya'ni: muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik. Muvaffaqiyatga erishish uchun doimiy ravishda maqsadlarni qayta ko'rib chiqish kerak [34].

G.Murreyning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatga erishish zarurati quyidagi tushunchalar bilan tavsiflanadi: qiyin ishlarni bajarish; boshqarish; tartibga solish; jismoniy ob'ektlar, shaxslar va g'oyalar munosabatlarini tashkillashtirish; imkon qadar tez va mustaqil ravishda bajarish; to'siqlarni bartaraf etish va yuqori natijaga erishish; rivojlanish; raqobatlashish va boshqalardan ustun turish; iste'dodlarni namoyish qilish va o'z-o'zini hurmat qilishni kuchaytirish [35].

Psixologiyada muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, shuningdek intilishlar darajasi bilan bog'liq tadqiqotlar M.Sh.Magomed-Eminov, T.V.Kornilov, I.M.Paley va boshqalar tomonidan bajarilgan.

M.Sh.Magomed-Eminov muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini integratsiyalashgan affektiv va kognitiv jarayonlarning funksional tizimi sifatida belgilaydi. Faoliyatni motivatsion boshqarish jarayonida muayyan funksiyalarni bajaruvchi maxsus tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin: dolzarblik motivatsiyasi (faoliyat istagi va tashabbus), seleksiya motivatsiyasi (maqsadni va unga mos faoliyatni tanlash jarayoni), amalga oshirish motivatsiyasi (harakatni tartibga solish va istakni amalga oshirishni nazorat qilish), postrealizatsiya motivatsiyasi (harakatni to'xtatish yoki bir harakatni boshqasiga o'zgartirishga yo'naltirilgan jarayonlar).

Muvaffaqiyat motivatsiyasini amalga oshirish mexanizmlaridan biri vaziyatning hissiy-motivatsion ahamiyatini baholash bo'lib, vaziyatni motivatsion baholash va muvaffaqiyatga erishish vaziyatlari umumiy kompetentligini baholashdan kelib chiqadi. Motivatsion an'ana intensivligi, muvaffaqiyatga erishish motivi va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik kabi ikki parametrlarning kattaligiga qarab o'zgaradi [15].

Shaxs motivatsiyasi ikki modalli, ijobiy va salbiy tarkibga ega. Bu ikki modallik ikki xil hissiy kechinma: rag'batlantirish va azoblanish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

His - tuyg'ularning ahamiyati shundaki, ular orqali inson o'tmishni o'ylaydi, kelajakni rejalashtiradi. Inson xulq-atvorida doimo bir vaqtda motivatsion omillar paydo bo'ladi. Bu

bilan bog‘liq holda motivatsion ahamiyati asosida paydo bo‘luvchi maqsadga erishishning yakuniy g‘oyasi, muvaffaqiyatni kutish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish asosida yuzaga keladi. Muvaffaqiyat tuyg‘ulari - bu faoliyatni tartibga solish jarayoniga kiruvchi universal mexanizm bo‘lib, to‘plangan tajriba asosida shaxsning maqsadga erishish va faoliyatning oqlanishi sifatida xizmat qiladi [16].

Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan har xil qarashlar mavjud. Ba‘zilar (masalan, D. Atkinson), muvaffaqiyatga erishish motivi doirasidagi mutanosib qutblar ekanini, agar inson muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan bo‘lsa, unda muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqmaydi va aksincha bo‘lishini ta‘kidlaydi. Boshqa tadqiqotlarda esa muvaffaqiyatga erishish istagi aniq ifodalansa, u qandaydir jiddiy oqibatlariga olib kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda muvaffaqiyatsizlik kuchli qo‘rquvga olib kelmaydi deb hisoblanadi. Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik o‘rtasida ijobiy munosabatlar bo‘lishi mumkinligiga dalillar mavjud. Shuning uchun, muvaffaqiyatga intilish yoki muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik istagini bir biridan ajratib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ular har ikkala intilishning ham yuqori ham past darajasida bo‘lishi mumkin [21].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Вулфов Б.З. Иванов В.Д. Основы педагогики: учебное пособие. – М.: УРАО, 1999. – С. 438-439.
3. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии / Под ред. С.А.Смирнова. – М.: Академия, 1998. – 510 с. – С.132.
4. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1997. – 136 с.
5. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1997. – 136 с.
6. Слободнюк Е.Г. Профессионально-ценностные ориентации как фактор становления личности будущего учителя: дис. ... канд. пед. наук. – Магнитогорск, 2000. – 192 с.
7. Ходжаев В.Х. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2016. – 314 b.
8. Давлетшин М.Г. Қобиляят ва унинг диагностикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 134 б.
9. Педагогика. Большая современная энциклопедия. – Минск: Современное слово, 2005. – 720 с.
10. Симонов В.П. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя. //Учебное пособие для студентов педвузов, учителей и слушателей ФПК. – М.: Межд. пед. академия, 1995. –189 с.
11. Хозяинов Г.И. Педагогическое мастерство преподавателя. – М.: Высшая школа. – 1988. –168 с.